Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasining eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri turizm hisoblanadi. Xususan, ekologik muvozanatni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda ekoturizm alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ekoturizm tabiiy hududlarni muhofaza qilish bilan bir qatorda, mahalliy aholi bandligini ta'minlash, xizmatlar sektorini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish hamda hududlarning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ekoturizmni kompleks baholash hamda uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ham turizmni milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, turizm infratuzilmasini



modernizatsiya qilish, transport-logistika tizimini takomillashtirish, vizasiz rejim joriy etilgan davlatlar sonini kengaytirish, investitsiyalarni jalb etish va hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan davlat dasturlari natijasida mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligi oshib bormoqda. Mamlakatda ekoturizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, milliy bog'lar, qo'riqxonalar, biosfera rezervatlari va noyob tabiiy hududlar negizida yangi turistik yo'nalishlarni tashkil etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishini tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkichlarni kompleks baholash masalasi yetarli darajada o'rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyatida turistlar oqimi, turistik xizmatlar eksporti yoki infratuzilma ko'rsatkichlari alohida tahlil qilingan bo'lsa-da, ularni yagona tizim asosida baholash, o'zaro bog'liqligini aniqlash va ekoturizm rivojlanish darajasini kompleks tavsiflovchi indikatorlar tizimini shakllantirish masalalari yetarlicha yoritilmagan. Natijada hududlarning ekoturistik salohiyatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda rivojlanish istiqbollarini ilmiy asosda belgilashda ayrim metodologik cheklovlar saqlanib qolmoqda [2, 4].

Mazkur sharoitda ekoturizm rivojlanishini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni tizimli tahlil qilish, ularning dinamikasini baholash hamda kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, turistlar oqimi, turistik xizmatlar eksporti, investitsiyalar, joylashtirish vositalari, turizm infratuzilmasi va bandlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni kompleks baholash, ularning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish hamda sohaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishining hozirgi holatini tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkichlarni tizimlashtirish;
- ekoturizm rivojlanishining asosiy statistik ko'rsatkichlarini dinamik tahlil qilish;
- ekoturizm rivojlanish darajasini kompleks baholashga xizmat qiluvchi ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish;
- tahlil natijalari asosida ekoturizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ekoturizmning nazariy va metodologik asoslari xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan bo'lib, ushbu yo'nalishda David A. Fennell, Ralf Buckley hamda Michael E. Porterning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

David A. Fennellning Ecotourism nomli fundamental asari (Routledge, 5-nashr – 2020, 6-nashr – 2026) ekoturizm nazariyasiga bag'ishlangan eng muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Muallif mazkur asarda ekoturizmni tabiatni muhofaza qilish, mahalliy aholi manfaatlarini qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy rivojlanishni uyg'unlashtiruvchi barqaror turizm shakli sifatida izohlaydi. Kitobda ekoturizmning asosiy tamoyillari, ekologik boshqaruv, mahalliy hamjamiyat ishtiroki, turizmning iqtisodiy va ekologik ta'siri, marketing, davlat siyosati hamda ekoturizmni rejalashtirish masalalari tizimli yoritilgan. Fennell ekoturizm samaradorligini baholashda turistlar soni bilan bir qatorda mahalliy iqtisodiyotga qo'shilgan qiymat, tabiatni muhofaza qilish xarajatlari va ijtimoiy foyda ko'rsatkichlarini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishini kompleks iqtisodiy baholash metodologiyasini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ralf Buckleyning Ecotourism: Principles and Practices (CABI Publishing, 2009) asari ekoturizmni boshqarish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan. Muallif ekoturizm rivojlanishining muvaffaqiyati tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, davlat boshqaruvi, xususiy sektor va mahalliy aholining hamkorligiga bog'liqligini asoslaydi. Kitobda ekoturizmning iqtisodiy, ekologik va institutsional jihatlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilingan bo'lib, turistik faoliyatning hududiy rivojlanishga ta'siri hamda ekoturizmning barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Olimning ilmiy qarashlari O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik, infratuzilmani takomillashtirish va mahalliy aholining turizm faoliyatidagi ishtirokini kengaytirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Turizmning hududiy raqobatbardoshligi va klaster yondashuvining nazariy asoslari Michael E. Porterning The Competitive Advantage of Nations (Free Press, 1990) hamda Clusters and the New Economics of Competition (Harvard Business Review, 1998) ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Porter klasterlari ma'lum hududda joylashgan o'zaro bog'liq korxonalar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, ilmiy muassasalar va davlat institutlarining integratsiyalashgan tizimi sifatida izohlaydi. Muallifning fikriga ko'ra, klasterlar innovatsiyalarni



jadallashtiradi, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, investitsiyalarni jalb qiladi va hududlarning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Ushbu nazariya turizm sohasida ham keng qo'llanilib, turistik destinatsiyalarni kompleks rivojlantirishning samarali modeli sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tadqiqotda Portnering klaster nazariyasi ekoturizm rivojlanish ko'rsatkichlarini baholash va hududlar kesimida iqtisodiy tahlilni amalga oshirishning nazariy-metodologik asosi sifatida foydalanildi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda ekoturizmning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy samaradorligi va klaster yondashuvi masalalari keng o'rganilgan. Biroq O'zbekiston sharoitida ekoturizm rivojlanishini tavsiflovchi iqtisodiy ko'rsatkichlarni yagona kompleks tizim asosida baholash, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda integrallashgan baholash metodikasini ishlab chiqishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada mavjud emas. Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, ekoturizm rivojlanishining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini kompleks baholash va ularning tahlili asosida ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishining hozirgi holatini baholash hamda sohaning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi ekoturizm rivojlanishini tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlarni tizimlashtirish, ularning dinamikasi va o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda kompleks baholash tamoyillariga asoslandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Turizm qo'mitasi, BMTning UN Tourism, World Bank, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlarning rasmiy statistik ma'lumotlari, shuningdek, turizm sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Tahlilda asosan 2020–2025-yillar bo'yicha statistik ma'lumotlardan foydalanildi [20, 21].

Tadqiqot davomida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot usullaridan kompleks foydalanildi. Jumladan:

- tizimli tahlil usuli orqali ekoturizm rivojlanishining iqtisodiy mazmuni va uni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar tizimlashtirildi;
- statistik tahlil yordamida turistlar oqimi, turistik xizmatlar eksporti, investitsiyalar, joylashtirish vositalari va turizm infratuzilmasining o'sish dinamikasi baholandi;
- qiyosiy tahlil usuli asosida O'zbekistonning ekoturizm rivojlanish ko'rsatkichlari yillar kesimida taqqoslandi hamda mavjud tendensiyalar aniqlandi;
- guruhlash va umumlashtirish usullari yordamida ekoturizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar tasniflandi;
- grafik va jadval usullari orqali statistik natijalar vizual shaklda ifodalandi hamda ularning iqtisodiy mazmuni izohlandi.

Tadqiqotda ekoturizm rivojlanishini kompleks baholash maqsadida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi shakllantirildi. Mazkur tizim quyidagi indikatorlarni o'z ichiga oladi:

- xorijiy va mahalliy turistlar oqimi;
- turistik xizmatlar eksporti hajmi;
- turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar;
- joylashtirish vositalari (mehmonxona, mehmon uyi, xostel va boshqalar) soni;
- turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida ekoturizm rivojlanishining umumiy tendensiyalari baholanib, sohaning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi. Kompleks yondashuv alohida statistik ko'rsatkichlarni mustaqil tahlil qilish bilan cheklanmay, ularning o'zaro bog'liqligini va ekoturizm rivojlanishiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish, hududiy rivojlanish dasturlarini takomillashtirish hamda sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish istiqbollarini baholashda mamlakatga tashrif buyuruvchi xorijiy turistlar oqimi asosiy makroiqtisodiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Turistlar sonining o'sishi nafaqat turizm xizmatlariga bo'lgan talabning ortishini, balki turizm infratuzilmasining rivojlanishi, investitsiya faolligining oshishi va hududlarning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligining kuchayishini ham ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval.
O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar dinamikasi¹

Yil	Turistlar soni, mln kishi	Izoh
2019	6,75	
2020*	0,5	COVID-19 pandemiyasi davri, taxminiy qiymat
2021	1,88	
2022	5,23	
2023	6,63	
2025 (11 oy)	10,7	
* 2020-yil — COVID-19 pandemiyasi davri, taxminiy qiymat		

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2019-yilda O'zbekistonga 6,75 mln nafar xorijiy turist tashrif buyurgan. Ushbu davr pandemiyadan oldingi davr bo'lib, mamlakat turizm sohasida barqaror rivojlanish bosqichiga kirgan edi. Ammo 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi oqibatida xalqaro transport qatnovlarining to'xtatilishi, davlatlararo chegaralarning vaqtincha yopilishi va sanitariya cheklavlari sabab turistlar soni 0,5 mln kishigacha kamaydi.


Mazkur holat 2019-yilga nisbatan qariyb 92,6 foizlik pasayish kuzatilganini anglatadi. Bu davr turizm sohasi uchun eng murakkab bosqichlardan biri bo'lib, mehmonxona xo'jaligi, transport, ovqatlanish va ekskursiya xizmatlari faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi.

2021-yildan boshlab esa turizm bozorida tiklanish jarayoni kuzatildi. Xorijiy turistlar soni 1,88 mln kishiga yetdi. Ushbu o'sish xalqaro aviaqatnovlarning qayta tiklanishi, vizasiz rejimning kengayishi hamda turizmni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining faollashuvi bilan izohlanadi.

2022-yilda xorijiy turistlar soni 5,23 mln kishini tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan deyarli 2,8 barobar yuqori bo'lib, pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonining jadal kechayotganligini ko'rsatadi.

2023-yilda mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 6,63 mln nafarga yetdi. Natijada pandemiyagacha bo'lgan daraja deyarli to'liq tiklandi. Bu davrda turizm infratuzilmasiga investitsiyalar hajmi ortishi, yangi mehmonxonalar va joylashtirish vositalarining ishga tushirilishi hamda xalqaro marketing tadbirlarining kuchayishi muhim omil bo'ldi.

Ayniqsa, 2025-yilning 11 oyi yakunlari bo'yicha turistlar sonining 10,7 mln kishiga yetgani sohada sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichi boshlanganini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkich 2019-yilga nisbatan 58,5 foiz, 2023-yilga nisbatan esa 61,4 foiz yuqori hisoblanadi. Bu esa O'zbekistonning xalqaro turizm bozoridagi mavqei sezilarli darajada mustahkamlanayotganidan dalolat beradi [4, 21, 22] (1-rasm).

1-rasm. O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy turistlar dinamikasi²

1 www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan.

2 Statistika ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, turistlar oqimining ortishi ekoturizmni rivojlantirish uchun ham qulay iqtisodiy sharoit yaratmoqda. Xususan, milliy bog'lar, biosfera rezervatlari, tog' va cho'l landshaftlari hamda Orolbo'yi hududlariga qiziqishning ortishi ekologik turizm xizmatlariga talabni kengaytiradi. Biroq mavjud turistlar oqimining asosiy qismi tarixiy-madaniy turizm yo'nalishlariga to'g'ri kelayotganligi sababli ekoturizmning umumiy turizm tarkibidagi ulushini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, statistik ma'lumotlar turistlar sonining ortishi bilan bir qatorda turizm xizmatlari sifati, turistlarning o'rtacha qolish muddati va bir turist hisobiga to'g'ri keladigan xarajatlar hajmini ham oshirish zarurligini ko'rsatmoqda. Aynan ushbu omillar ekoturizmning iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Biroq turistlar sonining ortishi ekoturizmning mutanosib rivojlanayotganini anglatmaydi. Hududlar kesimida ekoturizm salohiyatidan foydalanish darajasi sezilarli farq qiladi. Shu sababli mazkur tadqiqotda hududlar bo'yicha Ekoturizm rivojlanish indeksi (EDI) ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval.
2024-yil: hududlar bo'yicha Ekoturizm rivojlanish indeksi³

Hudud	EDI (0-100)
Sirdaryo	3,4
Navoiy	7,2
Qoraqalpog'iston	7,3
Jizzax	9,1
Surxondaryo	16,1
Andijon	21,8
Xorazm	21,8
Toshkent viloyati	22,6
Qashqadaryo	24,8
Namangan	26,6
Buxoro	28,4
Farg'ona	32,3
Samarqand	63
Toshkent shahri	100

2-jadvalda 2024-yil bo'yicha hududlarning Ekoturizm rivojlanish indeksi (EDI) natijalari keltirilgan. Hisob-kitoblarga ko'ra, Toshkent shahri 100 ball bilan eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan bo'lib, bu rivojlangan transport-logistika infratuzilmasi, turizm xizmatlari bozori va investitsion faollik bilan izohlanadi. Samarqand viloyati 63 ball bilan ikkinchi o'rinda qayd etilgan bo'lib, tarixiy-madaniy va ekologik turizm yo'nalishlarining uyg'un rivojlanishi ushbu natijaga ijobiy ta'sir ko'rsatgan [21, 22].

Shu bilan birga, Farg'ona (32,3 ball), Buxoro (28,4 ball), Namangan (26,6 ball) va Qashqadaryo (24,8 ball) viloyatlarida ekoturizm rivojlanish darajasi o'rtacha baholangan. Mazkur hududlarda tabiiy resurslar salohiyati mavjud bo'lsa-da, infratuzilma va marketing imkoniyatlarini yanada rivojlantirish zarur.

Qoraqalpog'iston Respublikasi 7,3 ball bilan quyi guruhdan o'rin olgan. Holbuki, hudud Orolbo'yi, Ustyurt platosi va Quyi Amudaryo biosfera rezervati kabi noyob ekoturistik resurslarga ega. Indeksning pastligi, asosan, transport va turizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, investitsiyalar hajmining pastligi hamda ekoturistik mahsulotlarni xalqaro bozorda targ'ib qilish darajasining sustligi bilan izohlanadi [21, 22].

Umuman olganda, indeks natijalari hududlarning tabiiy-ekologik salohiyati bilan ekoturizmning amaldagi rivojlanish darajasi o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa ekoturizmni rivojlantirishda infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va hududiy marketingni kuchaytirish ustuvor yo'nalishlar ekanligini tasdiqlaydi.

Olib borilgan tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, O'zbekistonda xorijiy turistlar oqimining barqaror o'sishi ekoturizmni rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy muhit shakllanayotganligini tasdiqlaydi. Biroq mavjud salohiyatdan to'liq foydalanish uchun ekologik turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, hududiy ekoturizm klasterlarini rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish va xalqaro marketing faoliyatini kuchaytirish zarur.

3 Statistika ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekistonda ekoturizm rivojlanishining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari kompleks tahlil qilindi hamda hududlar kesimida ekoturizm rivojlanish darajasi Ekoturizm rivojlanish indeksi (EDI) asosida baholandi. Tadqiqot natijalari mamlakatda so'nggi yillarda xorijiy turistlar oqimi va turizm xizmatlari hajmining barqaror o'sib borayotganligini ko'rsatdi. Xususan, 2025-yilning 11 oyi yakunlariga ko'ra, xorijiy turistlar soni 10,7 mln nafarga yetgani turizm sohasining pandemiyadan keyingi davrda yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotganligini tasdiqlaydi [21, 22].

Hududlar kesimida amalga oshirilgan kompleks baholash natijalari ekoturizm rivojlanish darajasida sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Toshkent shahri va Samarqand viloyati yuqori indeks ko'rsatkichlariga ega bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida ekoturizm salohiyati mavjud bo'lishiga qaramay, infratuzilma, investitsiya faolligi va marketing imkoniyatlarining cheklanganligi sababli indeks past shakllangan.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan Ekoturizm rivojlanish indeksi (EDI) hududlarning ekoturizm rivojlanish darajasini kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini beruvchi amaliy metodik vosita sifatida tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

- ekoturizm rivojlanishini baholashda Ekoturizm rivojlanish indeksi (EDI)ni hududlar kesimida muntazam hisoblab borish va uni strategik rejalashtirish amaliyotiga joriy etish;
- ekoturistik hududlarda transport, muhandislik-kommunikatsiya va servis infratuzilmasini rivojlantirish orqali turistlar uchun qulay sharoitlarni kengaytirish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida ekoturizm loyihalariga investitsiyalarni jalb etish va mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- hududlarning tabiiy-ekologik salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida yangi ekoturistik marshrutlar va turistik mahsulotlarni shakllantirish;
- O'zbekistonning ekoturistik salohiyatini xalqaro bozorlarda faol targ'ib qilish hamda zamonaviy raqamli marketing vositalaridan keng foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, ekoturizmni rivojlantirish nafaqat turizm xizmatlari bozorini kengaytirish, balki hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ekoturizm rivojlanish ko'rsatkichlarini kompleks baholash va ular asosida hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish O'zbekiston turizm siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining **Konstitutsiyasi**. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – B. 120–121.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2023-yil 26-apreldagi “2023–2026-yillarda turizm sohasini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-135-son qarori**. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8130293>
3. Buckley R. *Ecotourism: Principles and Practices*. – Wallingford: CABI Publishing, 2009.
4. Cooper C., Fletcher J., Fyall A., Gilbert D., Wanhill S. *Tourism: Principles and Practice*. 6th ed. – Harlow: Pearson Education, 2019.
5. Costa Rica Tourism Board (ICT). *Certification for Sustainable Tourism (CST)*. URL: <https://www.ict.go.cr/en/sustainability/cst.html>
6. Rivera M. The Impact of CST on Hotel Performance // *Journal of Sustainable Tourism*. – 2022. – Vol. 30, No. 4. – P. 879–895.
7. Fennell D. A. *Ecotourism*. 6th ed. – London: Routledge, 2026.
8. Fennell D. A. *Ecotourism*. 5th ed. – Abingdon, Oxon; New York: Routledge, 2020. – 382 p.
9. Goeldner C. R., Ritchie J. R. B. *Tourism: Principles, Practices, Philosophies*. 13th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2022.
10. Norwegian Maritime Authority. *Regulations on Zero-Emission Zones in the Norwegian Fjords*. – 2022.
11. Gössling S. et al. Norway's Pathway to Sustainable Tourism // *Scandinavian Journal of Hospitality and Tourism*. – 2022. – Vol. 22, No. 1. – P. 1–18.
12. National Trust for Nature Conservation (Nepal). *Annapurna Conservation Area Project (ACAP)*. URL: <https://ntnc.org.np/project/annapurna-conservation-area-project-acap>
13. Porter M. E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990.
14. Weaver D. *Sustainable Tourism*. – Oxford: Elsevier Butterworth-Heinemann, 2006.
15. World Bank. *World Development Indicators*. – Washington, DC: World Bank, 2025.



16. United Nations Environment Programme (UNEP). *Making Tourism More Sustainable: A Guide for Policy Makers*. – Paris: UNEP, 2023.
17. United Nations Tourism (UN Tourism). *Tourism Highlights: 2025 Edition*. – Madrid: UN Tourism, 2025.
18. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi. URL: <https://lex.uz/>
19. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. URL: <https://stat.uz/uz/>
20. World Bank Data. URL: <https://data.worldbank.org/>
21. OECD Tourism. URL: <https://www.oecd.org/cfe/tourism/>
22. World Travel & Tourism Council (WTTC). URL: <https://wtcc.org/>
23. Uzbekistan Travel. *Tourism Laws and Tourism Information*. URL: <https://uzbekistan.travel/en/tourism-laws/>
24. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi (rasmii portal). URL: <https://gov.uz/uz/uzbektourism>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>